

## **BOLALAR PSIXIKASINI RIVOJLANISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILAR**

**Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti  
Pedagogika yo‘nalishi 202-guruh talabasi  
Maxamattayirova Mehriqo**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada kelajak avlod egalari bo‘lgan bolalarni psixikasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar shuningdek, uning rivojlanish davrlari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Psixika, yosh avlod, kelajak, mobile, idrok, bolalar, bolalar psixologiyasi, in’ikos.

Bolalarning psixik jihatdan o‘shida ta’lim va tarbiya g‘oyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi XIX asrlarning o‘rtalaridan tobora ko‘p ta’kidlana boshlandi. Bolalar psixikasining o‘shisi bilan ta’lim va tarbiyaning o‘zaro munosabati haqidagi masalalarni hal etishga urinayotgan nazariyalar hozir ko‘p.

Kishining psixikasi haqidagi muntazam ta’limotni birinchi marta Aristotel (eramizdan oldingi 384—322-yillar) «Jon haqida» degan kitobida bayon qilgan. Shu sababli Aristotel alohida fan bo‘lgan psixologiyani vujudga keltirgan kishi yoki psixologiya fanining «otasi» hisoblanadi.[1-6]

Aks ettirish materiyaning umumiy xususiyatidan iborat bo‘lib, obyektlarning belgilari va alomatlarini turli darajada to‘g‘ri idrok qilishga qobiliyatligi, boshqa obyektlarning munosabatlari va tuzilishining tavsiflarini ifodalaydi. In’ikosning xususiyati materiyaning tashkil topganlik darajasiga bog‘liq, chunki u organik va noorganik tabiatda, hayvonot olamida, ijtimoiy hayotda o‘ta sodda va yuksak tashkil topgan tizimda sifat jihatdan xilma-xildir.[3-27]

Ta’lim va psixik o‘shish bir-biridan mustaqildir, degan nazariyaning namoyandalari ta’lim va psixik o‘shishni bir-biriga duch kelmaydigan ikkita parallel jarayon deb hisoblaydilar. Bu nazariyaning namoyandalari aqliy qobiliyatni aniqlash uchun dastlabki testlarni vujudga keltirgan edilar (Bine va Simón). Bu namoyandalar va ularning hozirgi izdoshlari aqliy qobiliyat «tug‘ma» bo‘lib, unga ta’lim ham, muhit ham ta’sir etmaydi, degan fikrga asoslanadilar. Ta’lim va psixik taraqqiyot bir-biridan mustaqil, degan nazariya amalda ta’lim-tarbiya ishlarining hammasini bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olmasdan tuzishga olib keldi.[2-13]

**Bolalar psixologiyasi** — psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli Bolalar psixologiyasini ko‘pincha yosh psixologiyasi deb ataydilar. Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma’rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va h. k.) paydo bo‘lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o‘rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o‘rganishda ko‘ndalang kesma va longityud deb nomlangan tadqiqotlar o‘tkaziladi. Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o‘zi bir vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo‘lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holat (longityud) da esa ma’lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko‘p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o‘z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo‘lgan ishonch, hurmat, qo‘llab-quvvatlash, unga bo‘lgan e’tiborlarini his qildirish, mumkin bo‘lgan va mumkin bo‘lmagan holatlar o‘rgatiladi.

**Bola psixik rivojlanishi va organizm yetilishining biologik omillari** Rivojlanishning biogenetik konsepsiyasi tarafdorlari shaxsning asosiy psixik xislatlari insonning hayotiy taqdirini belgilovchi uning tabiatini o‘ziga (biologik boshlanish) joylashtirilganligini taxmin qiladi. Ular intellekt, shaxsning amoral xislatlari va boshqalarni genetik dasturlashtirilgan, deb hisoblaydilar. [2-79] “Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko‘zlari bilan angelaydi. Ota-onaga nima yomon bo‘lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko‘rsa, bola uchun u inson yaxshi bo‘ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o‘zi xulosa qilishga o‘rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati - bu ko‘zgdagi sizning aksingiz. Bolaning ongi gul barglariday nozik va go‘zaldir. U eng ahamiyatsiz haqoratlarga nisbatan zaifdir. Shuning uchun uni sevgi va mehr bilan tarbiyalash kerak. Shuni tushunish kerakki, bolaning manfaatlarini ko‘zlab, bolalar ruhiy tushkunlikka tushganda, bolaning farovonligi va porloq kelajagi uchun yordam so‘rash kerak”- deb Doktor Sravanti Sanivarapu ta’kidlagan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak: bizning kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash hamda hozirgi turli axborot vositalari davrida yoshlarimizning turlicha psixik xastaliklar bilan dunyoga kelayotganini guvohi bo‘lmoqdamiz, ushbu holatlarni bartaraf etish hamda bunday holatlarni oldini olish uchun turli mobil qurilmalar va texnologik qurilmalardan homiladorlik davrida va go‘daklik davrida e’tibor qaratish kerakligini xulosa qilindi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari:**

1. P.Ivanov, M.Zufarovalarning “Umumiy psixologiya” [Toshkent -2008]
2. Z.Nishanova, M.Xolnazarovalarning “Rivojlanish psixologiyasi” [Toshkent-2018]
3. E.G‘oziyevning “Umumiy psixologiya” [Toshkent-2002]
4. [uz.wikipedia.org](http://uz.wikipedia.org)